1. Samarqandda istilochilarga qarshi Rofe ibn Lays qo‘zg‘oloni yuz bergan paytda arab xalifasi bo‘lgan shaxsni aniqlang.
A) Xorun ar-Rashid B) Ma’mun
C) Amir ibn Lays D) Abu Mansur

2. O‘zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo‘lib kiritgan ijodkorning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asarini toping.
A) “Hapalak” B) “Majmuayi shoiron”
C) “Zarbulmasal” D) “Devoni Mashrab”

3. O‘zbekiston Respublikasida viloyat, tumanlarning chegarasini o‘zgartirish qaysi organ roziligi asosida amalga oshiriladi?
A) Davlat Mulk qo‘mitasi B) Vazirlar Mahkamasi
C) Oliy Majlis D) Prezident

4. 1827-yilda Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko‘zda tutuvchi bitim qayerda imzolangan?
A) Londonda B) Istanbulda
C) Parijda D) Vashingtonda

5. Qaysi davlatga rasmda tasvirlangan shaxs tomonidan asos solingan?



A) Bolgariya B) Chexiya C) Polsha D) Kiyev Rusi

6. 1830-yilda Fransiyada mamlakat parlamentini tarqatib yuborgan qirol kim edi?
A) Lui Filipp B) Lyudovik XVIII
C) Karl X D) Napoleon III

7. Quyidagi hukmdorlardan qaysi birining davrida Qo‘qon xonligi bilan Rossiya o‘rtasida birinchi marta savdo aloqalari o‘rnatilgan?
A) Erdonabiy B) Norbo‘tabiy
C) Olimxon D) Umarxon

8. Buyuk Britaniya nemislar tashabbusi bilan qurilayotgan Bag‘dod temir yo‘lining Fors qo‘ltig‘iga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qayerda o‘z protektoratini o‘rnatdi?
A) Suriyada B) Falastinda
C) Quvaytda D) Bag’dod

9. Nil daryosi boshlanish havzalarini ilmiy o‘rganish bahonasi bilan yevropaliklar qaysi mamlakatni “ochishdi”?
A) Uganda B) Ruanda
C) Chad D) Buganda

10. Rasmda tasvirlangan mashhur Xonbandi suv ombori nechanchi asrda bunyod etilgan?



A) XI asrda B) X asrda C) IX asrda D) VIII asrda

11. Afrikada mustaqil Songai davlatiga asos solgan hukmdorni aniqlang.
A) Manelik B) Almi C) Muso I D) Sulaymon

12. Qachon Angela Merkel hokimiyatga kelganligining o‘n yilligi nishonlandi ?
A) 2017-y B) 2011-y C) 2012-y D) 2015-y

13. Olimpiada o’yinlari qachon tiklangan?
A) 1886-yilda B) 1856-yilda
C) 1896-yilda D) 1884-yilda

14. Xitoyda to‘rt asr davom etgan o‘zaro urushlarga barham berilib, yagona davlatga birlashish qachon yuz bergan?
A) V asrning I yarmida B) VI asrning I yarmida
C) VI asrning II yarmida D) IV asrning II yarmida

15. Rasmda tasvirlangan davlat tarixiga oid to’g’ri ma’lumotni aniqlang?



A) 1911-yilda prezidentlik saylovi bo’lib o’tgan
B) Xose Marti va Maksimo Gomes boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan
C) 1917-yilda demokratik Konstitutsiya qabul qilingan
D) 1895-yilda sotsil-demokratik partiya tuzilgan

16. “Sho’royi islomiya” tashkilotiga dastavval kim raislik qilgan?
A) Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev
B) Abdulvohidqori Abduraufqori o’g’li
C) Mustafo Cho’qay

D) Zaki Validiy

17. Franklar bosib olgan qaysi yerlarida o'z davlatlarini tuzganlar?
A) Shimoliy Afrikada B) Galliyada
C) Italiyada D) Britaniyada

18. 2014-yilning 15–16-may kunlari yurtimizning qaysi viloyatida xalqaro konferensiya o'tkazildi?
A) Toshkent B) Samarqand
C) Xorazm D) Buxoro

19. Porovozni ixtiro qilgan davlatni va ixtiro qilingan yilni aniqlang.
A) Germaniya, 1820-yil
B) Buyuk Britaniya, 1814-yil
C) Buyuk Britaniya, 1825-yil
D) Fransiya, 1814-yil

20. Lotin Amerikasida mustamlaka davlatlar mustaqillikka erishgandan keyin, qaysi davlatdan tashqari ularning hammasida respublika tuzumi qaror topdi?
A) Meksika B) Braziliya
C) Argentina D) Chili

21. Rasmda berilgan Qadimgi dunyo tarixiga tegishli bo'lgan voqea qaysi davlat tarixiga tegishli edi?



A) Xorazm
B) Rim
C) Kushon
D) Yunoniston

22. Aka-uka Bobur va Jahongir Mirzolar o'rtasida sulh tuzildi. Unga ko'ra ...
A) Jahongir Mirzo katta miqdorda tovon toTash evaziga Movarounnahrni tark etishi kerak edi
B) Bobur Mirzo faqat Axsi shahriga hokim boTib, Farg'ona vodiysining qolgan barcha hududi Jahongir Mirzo qo'liga o'tar edi
C) Sirdaryoning shimoliy tarafl Axsi shahri bilan Jahongirda va daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Boburda qoldi
D) Sirdaryoning shimoliy tarafl Axsi shahri bilan Bobur Mirzoda daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Jahongir Mirzoda qoldi

23. Buyuk Xitoy devori haqidagi qaysi ma'lumot xato?
A) Shimoliy Xitoy bo'ylab qurilgan.
B) balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi.
C) Doro I halok bo'lgan asrda qurilishi boshlangan.
D) U qadim zamonlarda dushman qo'shinlari uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qila olmagan.

24. O'zbekistonda Milliy xavfsizlik xizmati tasarrufida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etilgan (a) va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xavfsizlik kengashi tuzilgan (b) yillarni belgilang.
1) 1992-yil; 2) 1994-yil; 3) 1995-yil; 4) 1998-yil.
A) a-1, b-4 B) a-1, b-3
C) a-2, b-4 D) a-2, b-3

25. XVI asrda Parij shahri rivojlanishi sustlashiga nima sabab bo'ldi?
A) Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida savdo yo'Harming ko'chishi
B) Diniy urushlar va vabo epidemiyasining tarqlashi natijasida ko'plab odamlar halok bo'lishi
C) Angliya bilan murosali bahslarning uzoq muddat davom qilishi
D) Natural xo'jalikning hamon saqlanib qolayotganligi va hunarmandlarning mahsulotlarini sotishga imkoni yo'qligi

26. Quyidagi qaysi shahar Abulxayrxon davlati (O'zbek ulusi)ning dastlabki poytaxti edi?
A) Oqqo'rg'on B) O'zgan C) Arquq D) Tura

27. Quyidagilardan VII-VIII asrlarda Movarounnahrga harbiy yurishlarni amalga oshirgan shaxslarni belgilang.
1) Ubaydulloh ibn Ziyod; 2) Amir ibn Lays;
3) Qutayba ibn Muslim; 4) Tohir ibn Husayn.
A) 2, 4 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 2, 3

28. Monopolistik kapitalizm vujudga kelgan paytda AQSh mamlakat iqtisodini nechta oila nazorat qilib turgan?
A) 100 ta B) 50 ta
C) 60 ta D) 70 ta

29. Atlantika okeani bo'ylab suzishni qaysi mamlakat boshlab bergan?
A) angliyaliklar
B) fransiyaliklar
C) italiyaliklar
D) portugaliyaliklar

30. Istehkomli qars, qo'rg'on va ko'shklar asosan qanday vazifani o'tagan?
1) ma'muriy markaz;
2) qamoqxona;
3) chokarlar to'planadigan joy;
4) zarbxona;
5) dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti;
6) ibodatxona;
7) oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor.
A) 1, 3, 5, 7
B) 2, 5, 6, 7
C) 1, 2, 3, 6
D) 3, 5, 6, 7